



DEVELOPMENT OF COOPERATION WITH FOREIGN INVESTORS AND ITS HISTORICAL FOUNDATIONS IN THE ECONOMIC DEVELOPMENT OF KASHKADARYA REGION

Bakhtiyor Soatovich Rakhimov

Teacher at the Presidential School in Karshi

b.rakhimov@mail.ru

Karshi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: foreign business circles, mutual cooperation, investment agreements, “Qaynar” tourist zone, export-import, Kashkadarya region.

Received: 05.05.26

Accepted: 06.05.26

Published: 07.05.26

Abstract: This article examines the history of meetings held with representatives of business circles from foreign countries who visited the Kashkadarya region with the aim of forming and developing mutual economic relations. The impact of these meetings on the socio-economic development of the region is analyzed, and it is substantiated with scientific evidence that they have served as an important factor in the development of agriculture and industrial sectors in the region.

QASHQADARYO VILOYATI IQTISODIY TARAQQIYOTIDA XORIJIY SARMOYADORLAR BILAN HAMKORLIKNING RIVOJLANISHI VA TARIXIY ASOSLARI

Baxtiyor Soatovich Raximov

Qarshi shahridagi Prezident maktabi o'qituvchisi

b.rakhimov@mail.ru

Qarshi, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: xorijiy ishbilarmonlar, o'zaro hamkorlik, investitsion kelishivlar, “Qaynar” turistik zonasi, eksport-import, Qashqadaryo viloyati.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatiga o'zaro iqtisodiy aloqalarni shakllantirish va rivojlantirish maqsadida tashrif buyurgan xorijiy mamlakatlar ishbilarmonlar doiralari vakillari bilan o'tkazilgan uchrashuvlar tarixi haqida ma'lumot beriladi. Ushbu uchrashuvlarning viloyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ko'rsatgan ta'siri tahlil qilinib, ularning

hududda qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarish sohalarini rivojlantirishida muhim omil bo'lib xizmat qilganligi dalillar yordamida asoslangan.

РАЗВИТИЕ СОТРУДНИЧЕСТВА С ИНОСТРАННЫМИ ИНВЕТОРАМИ И ЕГО ИСТОРИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Бахтиёр Соатович Рахимов

Преподаватель Президентской школы в городе Карши

b.rakhimov@mail.ru

Карши, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: зарубежные деловые круги, взаимное сотрудничество, инвестиционные соглашения, туристическая зона «Кайнар», экспорт-импорт, Кашкадарьинская область.

Аннотация: В статье рассматривается история встреч с представителями деловых кругов зарубежных стран, посетивших Кашкадарьинскую область с целью формирования и развития взаимных экономических связей. Проанализировано влияние этих встреч на социально-экономическое развитие региона, а также на основе научных доказательств обосновано, что они сыграли важную роль в развитии сельского хозяйства и промышленного сектора области.

Kirish. Hozirgi globallashuv sharoitida hududiy iqtisodiyotning barqaror va tadrijiy rivojlanishini ta'minlashda xorijiy sarmoyadorlar bilan hamkorlik muhim omillardan biri hisoblanadi. Xususan, hududlarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda yangi ish o'rinlarini yaratishda xorijiy investitsiyalar muhim strategik ahamiyat kasb etmoqda. Hududiy iqtisodiyot rivojida xorijiy sarmoyadorlar bilan hamkorlikning tizimli rivojlanishi va tarixiy asoslarini tahlil qilish, mazkur hamkorlikning shakllanishi va evolyutsiyasini aniqlash, shuningdek, uning hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'sirini baholash ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili. Tadqiqot doirasida arxiv materiallari, statistik ma'lumotlar va davriy matbuot manbalari tahlil qilinib, ularning ilmiy qiymati baholandi. Tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar va manbalar shuni ko'rsatadiki, xorijiy investitsiyalarning hududiy iqtisodiyot rivojiga

ta'siri masalasi umumiy jihatdan yoritilgan bo'lsa-da, hududiy darajada xorijiy sarmoyadorlar bilan hamkorlikning institutsional va tarixiy asoslari yetarli darajada kompleks tadqiq etilmagan. Mazkur holat ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyatida xorijiy sarmoyadorlar bilan hamkorlikda hududning iqtisodiy rivojlanishini tarixiy jarayon sifatida o'rganishga qaratilgan bo'lib, tarix faniga xos umumilmiy va maxsus metodlar asosida amalga oshirildi. Tarixiylik prinsipi asosida jarayonlarning sabab-oqibat aloqalari, evolyutsion bosqichlari va hududiy xususiyatlari aniqlashtirildi. Manbashunoslik yondashuvi asosida arxiv materiallari, statistik ma'lumotlar, davriy matbuot hamda ilmiy adabiyotlar qiyosiy o'rganildi.

Natijalar tahlili va muhokamasi. Mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyatining tashqi iqtisodiy aloqalari sezilarli darajada rivojlandi. 1992-yilda Qashqadaryo viloyatiga iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yish maqsadida Ukrainaning Donetsk viloyatidan savdo va ishlab chiqarish tashkilotlari vakillari kelishgan. Qashqadaryolik mas'ul idora vakillari va mahalliy ishbiarmonlar ukrainalik tadbirkorlar bilan uchrashib, paxta tolasiga xalq xo'jaligi sohasiga ishlatiladigan metall buyumlar, oyna, g'isht, shifer, gaz plitalari, yengil sanoat mahsulotlarini almashtirish masalalarini muhokama qildilar. 1992-yil iyun oyida qashqadaryoliklar delegatsiyasining Donetsk viloyatiga safarlari natijasida ikki hudud o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik yanada mustahkamlandi.[1] Ukraina Respublikasining ma'muriy-hududiy birliklari bilan savdo-iqtisodiy aloqalar keyingi yillarda ham muntazam davom ettirildi. 1995-yil 25-aprel kuni Qarshi shahriga Ukrainaning Donetsk viloyati vakillari tashrif buyurgan. Ukraina delegatsiyasiga Donetsk viloyati kengashining raisi V.P. Shcherbin boshchilik qilgan. Uchrashuv davomida ukrainalik tadbirkorlar hududning paxta tolasini va qishloq xo'jaligi mahsulotlariga katta qiziqish bildirgan. Uchrashuvda tomonlar mahsulotlarni o'zaro ayirboshlashni amalga oshirish yo'llarini ishlab chiqish borasida kelishuvga erishganlar.[2]

Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jaligi sohasida ham salmoqli imkoniyatlarga egadir. Bu imkoniyatlardan unumli foydalanish viloyat iqtisodiy taraqqiyoti uchun katta hissa qo'shadi. 2022-yil sentabrda Qashqadaryo viloyati hokimi M. Azimov Antaliya qishloq xo'jaligi instituti ilmiy xodimi Husayn Namal va "Sahden Gula – Tarim - Hayvanchik" kompaniyasi vakili Rifat Bodem bilan uchrashuv o'tkazdi. Ular bilan o'tkazilgan muzokaralar davomida chorvachilik va mevasabzavot yetishtirish, go'sht va sut mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini va sifatini oshirish, shuningdek yetishtirilayotgan poliz ekinlarini Turkiyaga eksport qilish yuzasidan chora-tadbirlar belgilandi.[3] Tashqi bozorlarga qishloq xo'jalik mahsulotlarini eksport qilishda zamonaviy tajribalarga ega xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik qashqadaryolik ishbiarmonlar uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlar eshigini ochdi.

O‘zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlaridagi elchixonalari va konsulliklari yordamida mamlakat hududlarining, jumladan, Qashqadaryo viloyatining savdo-iqtisodiy imkoniyatlaridan samarali foydalanish masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018-yil yanvarda mamlakat tarixida ilk bor O‘zbekistonning xorijiy davlatlardagi elchilari bilan ochiq muloqot shaklidagi yig‘ilish o‘tkazdi. Ushbu yig‘ilish chog‘ida elchilar zimmasiga mamlakatning turli sohalardagi imkoniyatlarini xorijiy hamkorlarga yanada kengroq targ‘ib etish, iqtisodiy diplomatiya faoliyatini kuchaytirish, xorijiy investitsiyalarni mamlakatga jalb qilish uchun rejalarini ishlab chiqish topshirig‘i berildi. “Bundan buyon bizning xorijdagi elchilarimizga ham talab o‘zgaradi. Ularning faoliyatiga birinchi navbatda investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha qanday ishlayotganiga hamda ana shu investitsiya miqdoriga qarab baho beriladi.”[4] Mazkur uchrashuvdan so‘ng mamlakatimizning xorijiy davlatlardagi vakillari o‘zlarining ish rejalarining bir qismi sifatida hududlarning iqtisodiy salohiyatlarini targ‘ib qilishga ham alohida e‘tibor qarata boshlashdi. Xususan, 2021-yil yanvar oyida Tashqi ishlar vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik va konsullik vakolatxonalarini vakillaridan iborat delegatsiya Qashqadaryo viloyatida bo‘lishdi. Tashrif davomida viloyatning sanoat va eksport salohiyatini kuchaytirish, istiqbolli investitsiya loyihalarni amaliyotga tadbiiq etish masalalari muhokama qilindi. Elchixona va konsullik xodimlari viloyatdagi sanoat korxonalarini, ta‘lim muassasalari va mahalliy hokimliklar bilan uchrashuvlarda ishtirok etishib, xorijiy mamlakatlarda Qashqadaryoning iqtisodiy imkoniyatlarni keng targ‘ib qilish zarurligi haqida fikrlar bildirildi.[5] Keyinchalik ushbu natijasida mamlakatimizning xorijiy mamlakatlaridagi elchixonalari tomonidan amaliy chora-tadbirlar ham amalga oshirila boshlandi. Xususan, 2023-yil iyul oyida Xitoyning Pekin shahrida bo‘lib o‘tgan Qashqadaryo viloyatining investitsiyaviy salohiyati va imkoniyatlariga bag‘ishlangan biznes forum iqtisodiy diplomatiya, mintaqaviy rivojlanish va transmilliy hamkorlik nuqtai nazaridan tahlil etishga arzigulik muhim tadbiiq bo‘ldi. Mazkur forumda qishloq xo‘jaligi, elektrotexnika, to‘qimachilik, mashinasozlik, elektr-energetika kabi tarmoqlarda faoliyat yurituvchi 100 dan ortiq Xitoy kompaniyalari vakillari ishtirok etdi. Bu esa forumning sanoat ko‘lami va ko‘p tarmoqlilik jihatidan strategik ahamiyatga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Forumda Qashqadaryo viloyatidan 20 nafardan ortiq tadbirkorning qatnashgani mintaqaviy biznes elitalarining xalqaro maydonga chiqish harakatlarini anglatadi. Bu, o‘z navbatida, viloyatdagi kichik va o‘rta biznes subyektlarining globallashtirish jarayonida faol ishtirok etayotganidan dalolat beradi. Forum yakunida 200 million AQSH dollaridan ortiq investitsion kelishuvlar imzolanganini mintaqaga xorijiy kapital oqimini jalb etishda diplomatik va iqtisodiy mexanizmlarning samarali

ishlayotganini ko'rsatadi. Bu kabi yirik miqdordagi investitsiyalar hudud infratuzilmasini modernizatsiyalash, ishlab chiqarish hajmini oshirish va yangi ish o'rinlari yaratish orqali mintaqaviy barqarorlik va farovonlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Forum doirasida Xitoyning yirik kompaniyalaridan biri — "CAMC Engineering" vakillari bilan alohida uchrashuv o'tkazildi. Kompaniyaning global loyihalardagi to'plangan tajribasidan Qashqadaryo viloyatida ham innovatsion yondashuvlarni joriy etish maqsadida foydalanish imkoniyati maqsadga muvofiq deb topildi. Xususan, Kitob tumanida "Qaynar" turistik zonasini tashkil etish va zamonaviy osma dor yo'l qurish loyihasi bilan bog'liq muzokaralar turizm sohasida ham ulkan salohiyat mavjudligini ko'rsatmoqda. Bu loyiha uchun 15 million AQSH dollari miqdorida to'g'ridan-to'g'ri investitsiya jalb qilinishi mintaqaviy turizm infratuzilmasini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.[6] Sayyohlik infratuzilmasining yaxshilanishi esa nafaqat ichki turizmni, balki xalqaro sayyohlar oqimini oshirishga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, mazkur biznes forum O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi investitsion aloqalarni mustahkamlash, Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy imkoniyatlarini targ'ib qilish, hamda mintaqani xalqaro iqtisodiy tizimga integratsiyalashish borasida muhim qadam bo'ldi. Bu kabi tashabbuslar barqaror rivojlanish va innovatsion taraqqiyotga xizmat qiladi.

XXI asrning birinchi choragida O'zbekistonning mintaqaviy va global iqtisodiy tizimga integratsiyalashuvi jadallashdi. Qashqadaryo viloyati va Yevropaning markaziy qismida joylashgan Avstriya mamlakati o'rtasidagi hamkorlik tarixiy-iqtisodiy jarayonlarning muhim namunasi hisoblanadi. 2023-yil yanvar oyida Qashqadaryo viloyati hokimligi va Avstriyaning "Lasselsberger Group" kompaniyasi ta'sischisi va rahbari Yozef Lasselberger o'rtasidagi uchrashuvda Kitob tumanida toshni qayta ishlab undan bo'yoq, qurilish qorishmalari va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish buyicha muzokaralar o'tkazilib, shu yo'nalishda qiymati 35 mln AQSh dollarilik loyihani amalga oshirish yuzasidan dastlabki kelishuvga erishildi va yakunda shunga oid anglashuv memorandumini imzolandi.[7] Bu jarayonni viloyatning sanoat salohiyati va tabiiy resurslaridan xalqaro darajada foydalanish strategiyasining bir qismi sifatida baholash mumkin. Tarixiy nuqtai nazardan qaraganda, Markaziy Osiyo va Yevropa o'rtasidagi aloqalarga Buyuk Ipak yo'li orqali bir necha asrlar oldin asos solingan bo'lib, hozirgi kunda u zamonaviy global iqtisodiy loyihalar orqali davom ettirilmogda. Avstriya Respublikasining bu kompaniyasi bilan hamkorlik bu qadimiy aloqalarning yangi bosqichda qayta tiklanganligining tasdig'i hisoblanadi. Shuningdek, Kitob tumani hokimligi delegatsiyasining 2023-yil avgust oyida O'zbekiston elchixonasi ko'magida Avstriyaga amalga oshirgan xizmat safari O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy siyosatini mintaqaviy darajadan xalqaro darajaga o'tkazishga

bo'lgan intilishining uzviy bir qismi hisoblanadi. Dunyodagi 26 ta mamlakatda 30 ta ishlab chiqarish korxonasi ega "Lasselsberger Group" kompaniyasi bilan o'tkazilgan muzokaralar yakunida qurilish industriyasiga doir investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun 2023-yil sentyabr oyida kompaniya vakillarining Qashqadaryoga safarini uyushtirishga kelishib olindi. Kitob tumani delegatsiyasi tashrifi davomida yangi investitsiyaviy va eksport shartnomalarini ishlab chiqish maqsadida Avstriya Federal Iqtisodiy palatasining Janubi-Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlik departamenti vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazdi. Uchrashuvlarda viloyatning iqtisodiy salohiyati, xorijiy investorlar va ishbilarmon doira vakillari uchun yaratilgan keng imkoniyatlar, eksport tovarlari, shuningdek Kitob tumanida turizm, tog'-kon sanoati va qishloq xo'jaligi sohasida mavjud investitsiyaviy loyihalar to'g'risida taqdimotlar amalga oshirildi. [8]

Xulosa. Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy rivojlanishida xorijiy sarmoyadorlar bilan hamkorlikning shakllanishi tarixiy jarayon sifatida bosqichma-bosqich rivojlangan bo'lib, u mamlakatda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar hamda investitsiya siyosati bilan uzviy bog'liq ravishda amalga oshirildi. Ayniqsa, mustaqillikdan keyingi davrda viloyatda xorijiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarining takomillashuvi ushbu jarayonning jadallashuviga xizmat qilgan. Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotiy taraqqiyotida xorijiy investitsiyalarning sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaganini ko'rsatdi. Hududda amalga oshirilgan qo'shma korxonalar va investitsiya loyihalari ishlab chiqarish hajmining oshishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi hamda eksport salohiyatining kengayishiga xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Qashqadaryo haqiqati" gazetasi, 1992-yil 28-may, 63-son.
2. "Qashqadaryo haqiqati" gazetasi, 1995-yil 26-aprel, 34-son.
3. "Qashqadaryo" gazetasi, 2022-yil 22-sentabr 38-son.
4. Mirziyoyev Sh. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. –T.: "O'zbekiston", 2019, 42-bet
5. O'ktam B. 52 elchi va maslahatchi Qashqadaryoda. // "Qashqadaryo" gazetasi, 2021-yil 12-yanvar.
6. "Qashqadaryo" gazetasi, 2023-yil 20-iyul, 29-son
7. "Qashqadaryo" gazetasi, 2023-yil 2-fevral, 5-son
8. "Qashqadaryo" gazetasi 2023-yil 7-sentabr, 37-son